

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI, METODLARI VA TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Isroilov Davronbek Dilshodbek o'g'li

<https://orcid.org/0009-0000-7076-0679>

Andijon Davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Ismoilova Nafisa Lazizbek qizi

Andijon Davlat Pedagogika instituti

Milliy g'oya manaviyat asoslari va huquq talimi yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada so'ngi yillarda mamlakatimizda ta'limga bo'lgan etibor, fanlarni o'qitishda xalqaro baholash dasturlari, metod va texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish, hamda ushbu xalqaro baholash dasturlari, metod va texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslari haqida so'z boradi.

Annotation: in this article, the attention paid to education in our country in recent years, raising the quality of education to a new level through the use of international assessment programs, methods and technologies in the teaching of subjects, and the legal basis for using these international assessment programs, methods and technologies is talked about.

Аннотация: В данной статье внимание уделяется образованию в нашей стране в последние годы, поднятию качества образования на новый уровень за счет использования международных оценочных программ, методов и технологий в преподавании предметов, а также правовые основы использования этих международных речь идет о программах, методах и технологиях оценивания.

Kalit so'zlar : Xalqaro baholash dasturlari, o'qitish texnologiyasi, Ta'lim to'g'risidagi qonun, kadrlar tayorlash milliy dasturi, iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, PISA, TIMSS, PIRLS.

Key words: International assessment programs, teaching technology, the Law on Education, the national program of personnel training, the Organization for Economic Cooperation and Development, PISA, TIMSS, PIRLS.

Ключевые слова: Международные программы оценивания, технологии обучения, Закон об образовании, национальная программа подготовки кадров, Организация экономического сотрудничества и развития, PISA, TIMSS, PIRLS.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida hususan huquq fanlarini o'qitishda Xalqaro baholash dasturlari metodlari va texnologiyalarni joriy qilishning huquqiy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi¹, "O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida"² gi qonuni, Kadrlar tayorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"³ gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilish to'g'risida"gi 5712-son Farmoniga muvofiq qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi hamda sohaga oid xalqaro shartnomalarni misol qilish mumkin.

Hususan O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi Tashqi siyosat bobining 17-moddasi ikkinchi qismida Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin ekanligi belgilab o'tilgan. Bu esa Respublikaga har qanday sohada shuningdek ta'lim sohasidam erkin tashqi aloqalar o'rnatish imkonini beradi. Shuningdek maskur konstitutsiyaning 50- moddasining ikkinchi va uchinchi qismlariga muvofiq davlat uzluksiz ta'lim tizimini, uning harxil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi takidlangan bu esa ta'lim tizimini rivojlanishi uchun davlat ma'sulligini anglatadi va davlatning vakolotli organlari belgilangan tartibda soha rivoji uchun qonun yoki qaror qabul qiladi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturlari va texnologiyalaridan foydalanishning asosiy huquqiy asoslaridan biridir. Qonunning 36-moddasiga muvofiq ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta'lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o'tkazishga hamda ta'lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan. Eksperimental va innovatsion faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi deb takidlangan.

Ta'lim tashkilotlari eksperimental va innovatsion faoliyatda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek ta'lim to'g'risidagi qonunning 10-bobi ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik deb nomlanib

¹ Lex.uz sayti

² O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2019 yildagi PF-5618-son

maskur bobning 67-moddasiga muvofiq ta'lim tashkilotlari quyidagilar vositasida tegishli xorijiy mamlakatlarning ta'lim muassasalari va tashkilotlari bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi

Ta'lim muammolari yuzasidan ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish, qo'shma fakultetlar, o'quv markazlari va ilmiy laboratoriyalar tashkil etish, xalqaro darajadagi birgalikdagi ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot loyihalari va dasturlarini tayyorlash, hamkorlikda fundamental hamda amaliy ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar va simpoziumlar o'tkazish, talabalar, magistrlar, doktorantlar, o'qituvchilar va ilmiy xodimlar almashinishini amalga oshirish, ikki tomonlama diplomlar (Double Diploma) dasturlarini joriy etish, qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarni amalga oshirishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlari qonunchilikka muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalari va tashkilotlari bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlashni amalga oshirishi mumkin ekanligi belgilab qo'yilgan.

Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari qonunchilikka muvofiq ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha boshqa tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.⁴

O'zbekiston Respublikasida Xalqaro baholash dasturlari, metodlari va texnologiyalarini joriy qilishning huquqiy asoslaridan yana biri 2019-yil 9-yanvarda qabul qilingan jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasidir⁵. Ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadi va vazifalari etib quyidagilar belgilangan.

Aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, mustahkam irodali, o'z huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan va huquqbuzarlikka nisbatan muhosasiz munosabatda bo'ladigan fuqarolarni tarbiyalashning keng qamrovli muntazam tizimini yaratish konsepsiyaning asosiy maqsadidir.

Aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash⁶.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston ta'lim tizimida Xalqaro baholash dasturlari va metodlaridan foydalanishning yana bir huquqiy asosi bu 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5712-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"dir.

⁴ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 23.09.2020. O'RQ 637

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2019 yildagi PF-5618-son

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2019 yildagi PF-5618-son birinchi bant

О‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi⁷ 5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Konsepsiya xalq ta’limi tizimining uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berib bular jumlasiga O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, xalq ta’limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag‘ bilan ta’minlashning samaradorligini oshirish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta’lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish.

Xalq ta’limi tizimiga oid qonunchilikda, institutsional rivojlanishda, maktab yoshidagi bolalarga zamon talablariga mos ravishda ta’lim-tarbiya berishda ayrim bo‘shliq va kamchiliklar mavjud, shu jumladan⁸ umumiy o‘rta ta’limni boshqarish sohasida umumta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda ta’lim sifatini yuqori bosqichga ko‘tarish hamda mavjud muammolarni o‘z vaqtida hal etish talab etilmoqda, umumta’lim muassasalariga yuklatilgan vazifalarning deklarativ xaraktyerga egaligi, ularni amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning yetishmasligi amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, mahalliy davlat hokimiyati organlari umuta’lim muassasalari faoliyatini chuqur tahlil qilmasdan, faqatgina statistik va boshqa ma’lumotlarni to‘plash bilan chegaralanayotganligi joylardagi haqqoniy holatni aniqlashga to‘sqinlik qilmoqda, davlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, umumta’lim muassasalarini boshqarish, ishlarni rejalashtirish va tashkil etish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi pastligi qabul qilinayotgan qarorlarning

⁷ <https://lex.uz/ru/docs/-3893445>

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son

samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ushbu jarayonni tezkor kuzatib borish imkonini bermayapti, shuningdek davlat boshqaruvini ortiqcha byurokratlashtirish va uning sarf-xarajatlari oshishiga olib kelmoqda, xalq ta'limi tizimida ijtimoiy va davlat-xususiy sheriklikning rivojlanmaganligi nodavlat notijorat tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlarining ta'lim sohasidagi muammolarni hal etishdagi ishtirokini cheklamoqda, xalq ta'limi tizimida boshqaruv vertikalini amalga oshirish mexanizmining yetarlicha rivojlanmaganligi tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari rolining sezilarli darajada pasayishiga sabab bo'lmoqda, umumta'lim muassasalariga bolalarni qabul qilish, shuningdek o'quv jarayonida turli shakldagi korrupsiya elementlariga barham berish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy qilish talab etilmoqda.

Kadrlarni tayyorlash sohasida matematika, fizika, kimyo, informatika, ingliz tili va boshqa chet tillari kabi fanlar bo'yicha pedagog kadrlar yetishmovchiligi kuzatilmoqda, oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish jarayoniga uzoq hududlardagi talabalar uchun o'qishga kirishda imtiyozlarning yo'qligi sababli tog' va cho'l hududlaridagi maktablarda o'qituvchilarga ehtiyoj yuqori darajada qolmoqda, umumta'lim muassasalari o'qituvchilarining 14 foizini o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tashkil etmoqda, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga bo'lajak pedagog uchun mazmuniy yuklama bermaydigan ayrim fanlar kiritilgan, pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarning mazmunan eskirib qolganligi, shuningdek pedagogik amaliyotning yuzaki o'tilishi bo'lajak pedagogning kasbiy sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari umumiy sonining qariyb 25 foizini "Pedagogika" mutaxassisligi bitiruvchilari tashkil etishi va bu mutaxassislik eng ommaviylardan biri bo'lishiga qaramasdan, uning jozibadorligi pastligi sababli pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining o'z kasbi bo'yicha mehnat qilish motivatsiyasi past darajada qolmoqda, pedagog kadrlarni ishga qabul qilishda ularning malaka darajasini aniqlash uchun aniq talablarni ishlab chiqish lozim, direktor va o'qituvchilar bilishi va bajarishi kerak bo'lgan aniq belgilangan milliy standartlarning mavjud emasligi, ularning salohiyati o'sishiga hamda amaldagi muassasalar rahbarlarini tanlash va tayinlash tartibining samarasizligiga olib kelmoqda, mavjud malaka oshirish tizimi o'qituvchilar ehtiyojlariga mos emasligi, malaka oshirish kurslari mazmuni va qo'llaniladigan usullar eskirganligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini qo'llash orqali o'qituvchilarni masofadan qayta tayyorlash mexanizmi yo'lga qo'yilmaganligi o'qituvchilarning bilim va malakasini tizimli oshirib borish imkonini bermayapti, ko'p yillik mehnat stajiga ega yuqori malakali va tajribali pedagoglar ingliz tili yoki kompyuter savodxonligi bo'yicha yetarli bilimga ega emasligi sababli attestatsiyadan o'ta olmaslik holatlari kuzatilmoqda, o'quvchilar soni quvvatiga nisbatan kam bo'lgan maktablarda kadrlar tarkibi salohiyati pastligi tufayli talab darajasidagi ta'lim sifati ta'minlanmayapti.

O'quv jarayonini tashkil etish sohasida esao'quvchilarda ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish talab etilmoqda, ayrim maktablarda o'quvchilar soni sinfda o'quv jarayoni sifatining keskin pasayishiga olib keladigan darajada oshib ketgan, pedagoglarning metodik ta'minotini yaxshilash lozim, darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo'qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga omil bo'lib qolmoqda hamda ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta'sir etmoqda, davlat ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda, foydalanilayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o'quv qo'llanmalarini qo'shimcha yoki muqobil o'quv materiallari sifatida qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish talab etilmoqda, xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'qitish jarayoni metodik yordamga muhtoj, xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lim dasturlari yetarli darajada rivojlanmagan, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari dasturlarida o'qituvchilarning inklyuziv ta'lim bo'yicha maxsus tayyorgarligini ta'minlash lozim, maktablarda nizolarni hal qilish va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha samarali ichki tizim, shuningdek o'quvchilarni xavf guruhidan chiqarish uchun maktab o'qituvchilari va psixologlari malakasini oshirish yuzasidan maxsus dasturlar ishlab chiqish talab etilmoqda.

Xalq ta'limi tizimini moliyalashtirish sohasida xalq ta'limi tizimini moliyalashtirishda mablag'larni samarali va shaffof tizim asosida taqsimlash va foydalanish talab etilmoqda, xalq ta'limi muassasalariga davlat budjetidan ajratilgan xarajatlarning asosiy qismi ish haqiga sarflanib, o'quv jihozlari va materiallarini yangilashga, maktab binolarini ta'mirlashga yetarli mablag' yo'naltirilmayapti.

Xalq ta'limini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq xalq ta'limi tizimining asosiy maqsad va rivojlanish yo'nalishlari quyidagilardan iborat.

Umumta'lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o'quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, xalq ta'limi tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarga asosan amalga oshiriladi:

Ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek malakali professional pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida:

pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarini ta'limning kredit tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazish, pedagogika, didaktika, amaliy pedagogik psixologiya,

metodika kabi fanlarga alohida e'tibor qaratgan holda, o'quv materiallarini va pedagogik baholashni ishlab chiqish orqali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta'lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko'zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish;

bo'lajak pedagoglar uchun pedagogik faoliyatga moyillik va ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlash va baholash imkoniyatini beruvchi metodlarni ishlab chiqish;

umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning sifat tarkibini, xususan magistrlik darajasiga ega bo'lgan pedagoglar sonini bosqichma-bosqich oshirish;

xalq ta'limi tizimi uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini, shu jumladan ta'lim sohasiga yosh kadrlar kirib kelishini rag'batlantirishni qo'llab-quvvatlash;

avvalo chekka hududlarda joylashgan, o'quvchilar soni kam bo'lgan umumta'lim maktablari o'qituvchilariga qo'shimcha yangi ixtisosliklar va malakalarni o'zlashtirishga imkon beradigan ta'lim infratuzilmasini shakllantirish;

uzluksiz ta'lim sifatini mustaqil baholash tizimini shakllantirishga ko'maklashish va qo'shimcha pedagogik ta'lim xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish;

xalq ta'limi sohasida rahbar kadrlar tayyorlash bo'yicha standartlashtirilgan dastur ishlab chiqish hamda "Xalq ta'limi sohasida boshqaruv" yo'nalishi bo'yicha malaka oshirish va uni tugatib, imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan barcha tinglovchilarga ta'lim muassasalari rahbarlari lavozimlarini egallash imkonini beruvchi uch yil muddatli maxsus sertifikat berish tizimini yaratish;

umumta'lim muassasalari rahbar xodimlari lavozimiga nomzodlar o'rtasida tanlov asosida saralash amaliyotini joriy qilish va ularni rag'batlantirishni kuchaytirish;

pedagoglarning masofadan malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi samaradorligini oshirish va qamrovini kengaytirish;

malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o'qitish mazmuni va metodlarini yangilash, baholash tizimini qayta ko'rib chiqish;

pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining sirtqi ta'lim yo'nalishlari uchun qabul kvotalarini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tavsiyasi asosida pedagog xodimlarga ehtiyoji katta bo'lgan chekka tog'li va cho'l hududlardagi abituriyentlar uchun imtiyozli qabul kvotalarini belgilash mexanizmini joriy etish;

xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan PISA (The Programme for

International Student Assessment) umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish;

pedagog xodimlarning malaka talablarini, shuningdek yangilangan ta'lim standartlarini joriy etish uchun egallanadigan ko'nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish;

yosh o'qituvchilarni, ularning xizmat mavqeyi o'sishini hisobga olgan holda, kasbiy qo'llab-quvvatlash va hamkorlikda ishlash mexanizmini takomillashtirish⁹.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish tizimini yaratish borasida:

fan olimpiadalarini o'tkazish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va eng qobiliyatli, bilimli o'quvchilarni aniqlashda shaffoflikni ta'minlash, baholash mezonlarini mos ravishda tegishli xalqaro olimpiada va tanlovlar mezonlariga moslashtirish;

oliy ta'lim muassasalarining tadqiqot va innovatsion faoliyati ko'lamini kengaytirish, ular negizida biznes-inkubator va texnoparklarni tashkil etgan holda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda ularning ta'lim faoliyatini kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablarida tashkil etilgan o'quv-ishlab chiqarish majmualariga tatbiq etish.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturlari, metodlari va texnologiyalarini joriy etish va bularni joriy etish uchun huquqiy asoslarni yaratishdan, yuqorida takidlangan konsepsiyalarni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad va kutilayotgan natijalar sifatida konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O'zbekiston Respublikasining xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishda STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlari joriy etiladi xalq ta'limi tizimida o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va izlanishlar PISA, TIMSS, PIRLS kabi dasturlar va boshqalarda O'zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta'minlash, ta'lim dasturlari va muassasalarini akkreditatsiya qilish uchun O'zbekiston Respublikasining yetakchi xalqaro birlashmalarga kirishi ta'minlanadi, xorijiy til, informatika, matematika, fizika, kimyo, biologiya fanlarini chuqur o'rganishga mo'ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodlari tayyorlanadi, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan umumta'lim muassasalari negizida tarmoq maktablari yaratiladi va ushbu tarmoqqa o'quvchilarni

⁹ <https://lex.uz/en/docs/-4312785?ONDATE=29.04.2019&action=compare>

qamrab olish koeffitsiyenti past bo'lgan boshqa maktablar ham kiritiladi, Shuningdek O'zbeiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli farmoniga muvofiq tasdiqlanga 2022-2026- yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining sohaqa oid tegishli qismlarini xalq ta'limi tizimida xalqaro baholash dasturlari, metodlari va texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asosi sifatida ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: «Ўзбекистон», 2021.
2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни «Таълим тўғрисида». Тошкент, 2020 й., 23 сентябрь. №О'РQ-637.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5847-сонли Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2909-сонли қарори;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI.
6. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish KONSEPSIYASI. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son

III. Maxsus adabiyotlar

1. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (Organization for Economic Co-operation and Development, OECD)
2. PISA 2018 Reading framework – www.oecd.org Беруний А.Р. Жавоҳирот китоби. –Т.: Мерос, 1991.
3. Ковалева Г.С., Э.А.Красновский Примеры открытых заданий по чтению PISA–2000, Центр оценки качества образования ИСРО РАО, 2003
4. А.В.Radjiyev, А.А.Ismailov, J.R.Narziyev, X.P.Tog'ayeva, «O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi», Qo'llan_ma, 2019-yil
5. Давлат Ва Ҳуқуқ Назарияси. Дарслик. Х одилқориёв Toshkent 2009.
6. Международный координационный центр исследования TIMSS – <http://timss2015.org/>.
7. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi – Т.: Ma'naviyat, 2019.

IV. Internet saytlari

1. <http://Ziyonet.uz>
2. <http://www.gov.uz>
3. <http://www.lex.uz>
4. <http://www.norma.uz>